


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligi

Axborot texnologiyalari markazi
Direktori



I.K. Djumaniyazov

«___» _____ 2022 yil

Moliya vazirligi Axborottexnologiyalari markazi
xodimlari uchun ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha
eng yaxshi taklifni tanlash yuzasidan

TEXNIK TOPSHIRIQ

(____varaqda)

2022 yil “___” _____ dan amal qiladi

Toshkent - 2022

MUNDARIJA:

I. BO'LIM - TEXNIK QISM

II. BO'LIM - NARX QISMI

III. BO'LIM - BAHOLASH MEZONLARI

I - BO'LIM

TEXNIK QISM

Moliya vazirligi Axborottexnologiyalari markazi (keyingi o'rnlarda markaz), O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdag'i "Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi 265-1-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 730-sonli Qonuniga asosan va Moliya vazirligining 2022-yil 27-apreldagi 59-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida markazning barcha xodimlarini kafolatli malakali tibbiy xizmatlardan foydalanishini ta'minlashmaqsadida Toshkent shahri va viloyatlardagi eng yaxshi tibbiyot muassasalarida tibbiy yordamning barcha shakllarini tashkil etish to'g'risida qarorga kelindi.

Sug'urta hodisasi –sug'urtalangan shaxsning shartnomaga amal qilish muddati davomida o'tkir kasallik, surunkali kasallikning kuchayishi va sog'lig'iga yetadigan jarohat natijasida belgilangan xizmatlardan foydalanish bo'yicha etadigan murojaatidir.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta, shartnomaga asosida ishlaydi va sug'urtalanganshaxslarga tibbiy yordam ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish rejimi: haftada 7 (yetti) kun va to'liq kun davomida 24 soat (24/7).

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturiga qo'yiladigan talablar:

1) Shoshilinch tez-tibbiy yordam;

- tez yordam brigadasining kelishi va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;
- kerakli ekspress diagnostikani o'tkazish;
- shoshilinch navbatchi kasalxonaga yotqizish.

2) Ambulator poliklinika yordami;

- barcha ixtisoslikdagi shifokorlarning maslahati va nazorati;
- kerakli laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazish;
- instrumental diagnostika tadqiqotlarini o'tkazish (rentgen, ultratovush, endoskopik va boshqalar);
- belgilangan davolanishlarni amalga oshirish.

3) Vaksinatsiya O'TKIR surunkali virusli infeksiya grippga qarshi (yiliga 1 marta).

- umumiy amaliyot vrachining tezkor maslahati;
- organizmda sun'iy immunitet hosil qilish uchun vaktsina yuborish.

4) Statsionar davolanish;

- ixtisoslashtirilgan shifoxonaga yotqizish;
- turli profildagi malakali mutaxassislarining maslahati;
- laboratoriya va diagnostika tadqiqotlari;
- konservativ va jarrohlik davolash;
- statsionar davolanish davomida to'liq dori vositalari bilan ta'minlash.

5) Shifokorni uyg'a chaqirish;

- sug'urtalangan shaxsning uyida konsultativ tibbiy yordam ko'rsatish;
- uyda test sinovlarini o'tkazishni tashkil etish va uning natijalari to'g'risida mijozni telefon orqali xabardor qilish;
- uyda kasalxonani tashkil etish (shifokor tomonidan uyda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni bajarish).

6) Tibbiy ko‘rik (yiliga 1 marta).

Shikoyatlar mavjudligi yoki yo‘qligidan qat’i nazar, sog‘lig‘ining umumiy holatini aniqlash uchun tekshiruv:

- tor ixtisoslikdagi mutaxassislar (terapevt, okulist, nevrapotolog, otoloringolog va boshqa mutaxassislar) maslahatlari;
- umumiy qon tahlili;
- umumiy siydik tahlili;
- elektrokardiogramma;
- flyuryografiya.

7) Ambulator poliklinika yordami bo‘yicha dori ta’minoti (sug‘urta summasining 20%);

- tibbiyot muassasalari shifokorlarining ko‘rsatmasi bo‘yicha ambulator davolanish vaqtida dori vositalarini olish.

dorixonada dori vositalari mavjudligi to‘g‘risidagi ma'lumotlar yordam xizmati tomonidan bevosita mijozga ma'lum qilish.

8) Shoshilinch stomatologik yordam (sug‘urta summasining 15%);

- tish va og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarini terapeutik va / yoki jarrohlik orqali davolash;
- tish profili kasalliklarini davolashda zarur bo‘lgan dori-darmonlar bilan ta’minlash.

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta bo‘yicha turli yo‘nalishlar va qamrovlarni o‘zida jamlagan holda 4 xil tibbiy dastur kesimida bo‘lishi kerak.

Xizmat narxlarini taklif etishda 4 xil tibbiy dasturning bir kishi uchun ko‘rsatilgan narxida quyidagi jadvalga muvofiq taqdim etish zarur.

| № | Guruh tasnifi | Soni | 1 kishi uchun sug‘urta javobgarligi | Jami sug‘urta javobgarligi | 1 kishi uchun sug‘urta mukofoti | Jami sug‘urta mukofoti |
|----------|----------------------|-------------|--|-----------------------------------|--|-------------------------------|
| 1 | A | 3 | | | | |
| 2 | B | 30 | | | | |
| 3 | C | 39 | | | | |
| 4 | D | 111 | | | | |
| | JAMI: | 183 | | | | |

**II – BO‘LIM.
NARX QISMI**

Tanloving chegaraviy narxi: 600 000 000,0 so‘m.

Har bir Sug‘urtalangan shaxs uchun sug‘urta summasi Sug‘urta mukofotidan kelib chiqib belgilanadi.

Narx 183 kishi miqdorida sug‘urtalangan shaxslar sonidan kelib chiqqan holda taqdim etiladi va sug‘urtalanadigan shaxslarning har bir dasturi va toifasi uchun sug‘urta summasi Sug‘urta mukofotidan kelib chiqib belgilanadi.

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta stavkasi:

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish muddati: 1 yil.

O‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Moliyalashtirish va to‘lash shartlari shartnomaga ko‘ra amalga oshiriladi.

To‘lov bank o‘tkazmasi orqali amalga oshiriladi.

Xizmatlarni ko‘rsatish shartnomasi normativ hujjatlarga hususan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq bo‘lishi kerak.

Shartnoma valyutasi – Milliy valyuta – “So‘m”da hisobga olinadi.

III - BO'LIM.
BAHOLASH MEZONLARI

Ishtirokchilarni baholash tartibi va mezonlari.
Texnik baholash mezonlari

| № | Mezon | Baho | Ball | Izoh |
|----------|--|------------------------|-------------|--|
| 1. | Ishtirok etish uchun ariza (1-shakl) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-3 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 2. | Ishtirokchi haqida umumiy ma’lumot (2-shakl) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-3 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 3. | Ishtirokchi yoki uning filiallari Buyurtmachi bilan va/yoki boshqa tashkilotlar bilan sud muhokamasi holatida emasligi haqida kafolat xati (3-shakl) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-3 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 4. | Guvohnomaning va Litsenziyaning mavjudligi | Mavjud/ Mavjud emas | 0-3 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 5. | 2021-yil uchun Milliy reytingning mavjudligi (AAA- dan past emas) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-3 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 6. | 2021-yil uchun Xalqaro reytingning mavjudligi (B+ dan past emas) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-15 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 7. | Ishtirokchining moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot (4-shakl) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-10 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 8. | Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlarni taqdim etishda kamida 8 yillik ish tajribasiga ega bo‘lishi (5-shakl) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-10 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 9. | O‘z assistans xizmatining mavjudligi (Ta’sis hujjati) | Mavjud/ Mavjud emas | 0-15 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 10 | O‘zbekiston Sug‘urta bozorining 2022-yil I-yarim yillik uchun umumiy reyting ko‘rsatkichlarida umumiy sug‘urta sohasidagi umumiy sug‘urta mukofotlari bo‘yicha 1-10 o‘rin oralig‘idagi sug‘urta tashkiloti bo‘lishi* | Mavjud/ Mavjud emas | 0-15 | Yo‘q bo‘lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| | | | 80 | |

*Izoh: Moliya vazirligi huzuridagi SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGIning rasmiy veb saytidan olingan - <https://imda.uz/uz/2022-I-yarim-yillik/>

Texnik baholash mezonlaridan eng past o‘tish bali - 60 ball.

Taqdim etilgan hujjalarning asosida Tanlov komissiyasi tomonidan baholash amalga oshiriladi.

Tanlov ishtirokchilarining majburiy talablarga javob bermaydigan takliflari tanlovdan chetlashtiriladi. Komissiya mezonlar bo‘yicha ball beradi. Maksimal ball to‘plagan ishtirokchi g‘olib hisoblanadi.

Moliyaviy baholash mezonlari

| Nº | Xizmatlar | Baho | | Izoh |
|-----------|---|------------------------|------|--|
| 1 | Tasniflangan tibbiy dastur va xizmatlar ro'yxatining maqbul narhi | Mavjud/ Mayjud emas | 0-20 | Yo'q bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| | | | 20 | |

Ishtirokchi texnik topshiriqning barcha talablariga javob berishi kerak.

Narxlarni baholash mezonlari

Baholash uchun 183 kishi miqdorida sug'urtalangan shaxslar sonidan kelib chiqqan holda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini ko'rsatish majburiydir va sug'urtalangan shaxslarning har bir dasturi va toifasi uchun sug'urta summasi Sug'urta qildiruvchi tomonidan tanlanadi.

| Nº | Narx | Baho | Izoh |
|-----------|-------------------------------------|-------------------------------------|--|
| 1 | Tibbiy sug'urta uchun narx taklifi | <i>Maqbul narxda</i> | Agar u chegaraviy qiymatdan oshib ketgan bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |
| 2 | Tibbiy sug'urta uchun guruh tasnifi | <i>Mos keladi/ Mos kelmaydi</i> | Agar u sug'urta stavkasidan oshib ketgan bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega |